

FUQAROLIK PROTSESSIDA ISBOTLASH VA DALILLAR. FUQAROLIK PROTSESSIDA DA'VO

Abduraxmonov Abbos Abdullayevich

*Toshkent davlat yuridik universiteti davlat
huquqiy faoliyati fakulteti talabasi*

Email: abbosabduraxmonov716@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik protsessidagi munosabatlar, isbotlash va dalillarning ahamiyati, da'vo, qarshi da'vo, milliy va xalqaro olimlarning fikrlari batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik protsessi, protsess ishtirokchilari, isbotlash, dalillar, da'vo.

KIRISH

Fuqarolik protsessi — bu fuqarolik, oilaviy, mehnat, uy-joy, yer va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni sud orqali hal etish tartibidir. Zamonaviy fuqarolik munosabatlar murakkablashgani sari fuqarolik protsessda dalillarni yig'ish, taqdim etish va baholashning o'ziga xos jihatlari paydo bo'lmoqda. Xususan, elektron hujjatlar, raqamli yozuvlar va boshqa zamonaviy isbot vositalari iqtisodiy sud ishlarida muhim o'rin egallay boshladi. Shu bois, dalillarning huquqiy maqomi, ularning qabul qilinishi va ishonchliligi masalalari xalqaro va milliy qonunchilik darajasida dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Mazkur tahliliy ishda fuqarolik huquqi protsessida dalillarning huquqiy ahamiyati, ularning baholash mezonlari va sud amaliyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi doirasida dalillar bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy normalar o'rganiladi. Shu orqali mavzuga oid asosiy ilmiy munozaralar va amaliy masalalar yoritiladi. Chunki sud faqat taraflar tomonidan taqdim etilgan dalillar va isbotlash jarayoni natijasida qonuniy va asosli qaror qabul qiladi.

Avvalo, fuqarolik huquqi protsessidagi isbotlash va dalillarning nazariy-huquqiy asoslariga to'xtalib o'tamiz. Professor M.M.Mamasiddiqov ta'kidlaydiki, "Fuqarolik protsessida **isbotlash** nizoli huquqiy munosabatlarga oid faktik holatlarni aniqlash jarayoni bo'lib, sud tomonlar o'rtasidagi nizolarni to'g'ri hal qilish uchun ularning o'zaro huquqiy munosabatlari mazmunini belgilashi zarur"¹. **Isbotlash** - fuqarolik sud jarayonining markaziy instituti bo'lib, u sud tomonidan ishning haqiqiy holatini aniqlash, nizoli huquqiy munosabatlarni to'g'ri baholash va adolatli qaror qabul qilish

¹ Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. – Toshkent: TDYU, 2010.

uchun zarur bo'lgan protsessual faoliyatdir. Z.Esanova ta'rifi bo'yicha: **“Isbotlash** bu faoliyat, jarayon, harakat demakdir. Isbotlash jarayoni isbotlash vositalari orqali amalga oshiriladi”. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, isbotlashning ikki jihatini ajratish mumkin:

1. Protsessual jihat - qonunda belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilgan holda dalillarni to'plash, tekshirish va baholash;
2. Mantiqiy jihat - faktlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayoni.

Professor M.M.Mamasiddiqov isbotlashni kengroq talqin qilib, uni “sudlarda qonunda ko'rsatilgan subyektlar tomonidan qonunda ko'rsatilgan tartibda muayyan fuqarolik ishini hal qilish uchun isbotlashga oid protsessual harakatlarni amalga oshirish va ishning haqiqiy holatini ochishga qaratilgan mantiqiy, huquqiy va protsessual faoliyat”, deb ta'riflaydi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq, sud ishni faqat **aniqlangan faktlar** va **tekshirilgan dalillar** asosida ko'rib chiqadi. Isbotlash jarayoni sud muhokamasining barcha bosqichlarida amalga oshiriladi va sud adolatining asosiy kafolatlaridan biridir. Isbotlashning asosiy maqsadi ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash, taraflarning talab va e'tirozlarini asoslash, onuniy va adolatli sud qarorini qabul qilishga erishishdan iborat. Fuqarolik protsessida isbotlash subyektlari da'vogar, javobgar, uchinchi shaxslar, prokuror (agar ishda ishtirok etsa), davlat organlari va boshqa shaxslar hisoblanadi. Asosiy isbotlash majburiyati taraflar zimmasiga yuklatilgan. Sud esa isbotlashda betaraf bo'lib, faqat taqdim etilgan dalillarni tekshiradi va baholaydi, zarur hollarda dalillarni talab qilib olishi mumkin. Isbotlash predmeti — bu sud tomonidan aniqlanishi lozim bo'lgan, ishni hal etish uchun muhim bo'lgan faktlar majmuasidir. Unga da'vo asoslari, e'tirozlarga oid holatlar, da'vo muddati, huquq va majburiyatlarning vujudga kelishi, o'zgarishi yoki bekor bo'lishi misol bo'la oladi.

Ingliz huquqshunosi **Jeremi Bentam** ta'kidlaganidek: **“Dalillar** - bu sud jarayonining ko'zlari, ularsiz sudya haqiqatni ko'ra olmaydi”². Dalillar – bu nizoni hal qilish yoki taraflarning huquqiy majburiyatlarini belgilash uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan har qanday bayonot, fakt yoki holatni tasdiqlash yoki rad etish uchun sud muhokamasida taqdim etilgan ma'lumotlar, faktlar yoki materiallar. Huquqiy ishlarda dalillar asosiy rol o'ynaydi, chunki u sudga qonuniy qaror qabul qilish uchun asos bo'ladigan faktik holatlarni aniqlashga yordam beradi. Dalillar turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, yozma va raqamli dalillar, ashyoviy dalillar (masalan, ko'rgazmalar), guvohlarning ko'rsatmalari, ekspert xulosalari, mutaxassis maslahatlari, audio hamda video yozuvlar va boshqalar³. Dalillarning ishonchliligi va qonunga muvofiq qabul qilinishi hamda ular belgilangan protsessual qoidalarga

² Bentham J. Rationale of Judicial Evidence. – London: Hunt & Clarke, 1827.

³ <https://lex.uz/docs/3517337>

muvofoiq to'planishi va sudga taqdim etilishi muhim ahamiyatga ega. Dalillar ishda ishtirok etuvchi tomonlardan birining pozitsiyasini qo'llab-quvvatlashi yoki muayyan ishda qo'llaniladigan faktik holatlar va huquqiy normalarni aniqlash uchun asos bo'lishi mumkin. Dalillarni to'plash va taqdim etish qoidalari sud protsessida muhim rol o'ynaydi va huquq tizimining asosiy qismidir. Ular ishlarning adolatli va shaffof ko'rilishini ta'minlaydi, taraflarning huquqlarini himoya qiladi. Shu yo'sinda bir nechta talablarga javob bersagina, dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin. Dalillar qonunga muvofoiq to'planishi va taqdim etilishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ularni to'plash va ishlatish qonunni buzmasligi kerak. Ular sud tomonidan muhim, deb hisoblanishi uchun belgilangan qoidalar va mezonlarga javob berishlari kerak. Dalillar aniq mualliflik va yaxlitlikka ega bo'lishi kerak. Masalan, hujjatlar tegishli shaxslar tomonidan imzolanishi, fotosuratlar yoki videolar buzilmasligi kerak. Tomonlar dalillardan foydalanish va o'zlarining qarshi dalillarini taqdim etish imkoniyatida teng huquqqa ega bo'lishlari kerak. Biroq ayrim dalillar qonun bilan cheklanishi mumkin. Vakolatli shaxslar yoki ekspertlar tomonidan to'planishi kerak. Bunga guvohlar, mutaxassislar, ekspertlar va zarur bilim va tajribaga ega bo'lgan boshqalar kirishi mumkin. Sudya dalillarning maqbul yoki qabul qilinmasligini, shuningdek, uning ish uchun ahamiyati va ahamiyatini hal qilish huquqiga ega. Tomonlar dalillarni taqdim etish uchun sud tomonidan belgilangan muddatlarga rioya qilishlari lozim. Ushbu qoidalarga amal qilish sud muhokamasining adolatliligini va taraflarning huquqlarini hurmat qilishni ta'minlaydi. Ushbu qoidalarni buzish dalillarni rad etishga olib kelishi va sudda haqiqatni topish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Fikrimizcha, dalillar - bu qonuniy yo'l bilan olingan va sud ishini hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan faktik ma'lumotlardir. FPKga muvofoiq, sud faqat qonunda nazarda tutilgan tartibda olingan dalillarga asoslanadi. Dalillar aloqadorlik, ishonchlilik, maqbullik, yetarlilik kabi talablarga javob berishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2020-yil 19-dekabrda 35-sonli "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida"gi Qarorida alohida ta'kidlanganidek, hech bir dalil sud uchun oldindan belgilangan kuchga ega emas⁴. Bu tamoyil sud mustaqilligi va adolatli sudlovning muhim kafolatidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi FPKga ko'ra, fuqarolik protsessida quyidagi dalil turlari mavjud:

1. Yozma dalillar - shartnomalar, kvitansiyalar, rasmiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqa yozma hujjatlar.

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-5185744>

2. **Moddiy dalillar** - nizo predmeti bo'lgan buyumlar yoki ish holatini tasdiqlovchi ashyolar.

3. **Guvohlarning ko'rsatmalari** - ishga aloqador holatlarni bilgan shaxslarning sudda bergan ko'rsatmalari.

4. **Ekspert xulosalari** - maxsus bilim talab qilinadigan masalalar bo'yicha mutaxassislar xulosalari.

5. **Taraflarning tushuntirishlari** - da'vogar va javobgarining sud majlisida bergan izohlari.

2018-yilda qabul qilingan Fuqarolik protsessual kodeksida bu institutlar qayta ko'rib chiqildi va zamonaviy talablarga moslashtirilgan normalar joriy etildi. 2024-yil 21-noyabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi Qonun⁵ ushbu sohadagi islohotlarning davom etayotganligidan dalolat beradi. Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sud jarayonlarida raqamli dalillardan foydalanish zaruriyatini tug'dirdi. Biroq bu borada bir qancha muammolar kuzatilmoqda.

Birinchidan, raqamli dalillarning haqiqiylikini tekshirish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Elektron hujjatlarni soxtalashtirish imkoniyatlari ortib borayotgan sharoitda, sudlarda bunday dalillarning autentligini aniqlash uchun zarur texnik vositalar va mutaxassislar yetishmayapti.

Ikkinchidan, elektron dalillarning saqlanishi va butunligi masalasi. Raqamli ma'lumotlar osongina o'zgartirilishi yoki yo'q qilinishi mumkin, bu esa dalillar zanjirining uzilishiga olib keladi. Professor Sh.Sh.Shoraxmetov ta'kidlaganidek, "Dalillarning saqlanishi va ularning asl holatda qolishi isbotlash jarayonining muhim shartlaridan biri"⁶.

Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar, messengerlar orqali olib borilgan yozishmalar va bulutli xizmatlardan olingan dalillarning maqbulligi masalasi. Amaliyotda sud organlari bunday dalillarni qabul qilishda turlicha yondashuvlar qo'llamoqda, bu esa aniqlikning yo'qligidan dalolat beradi.

Sud amaliyotida dalillarni baholash jarayonida ham kamchiliklar mavjud. M.M.Mamasiddiqov va hammualliflarning ta'kidlashicha, "Dalillarni baholash sud tomonidan har bir dalilning alohida-alohida va barcha dalillarning majmuasining tegishlilik, maqbulligi, ishonchliligi va yetarliligi bo'yicha xulosa chiqarish jarayonidir"⁷. Masalan, o'xshash dalillar mavjud bo'lganida, ularni baholash mezonlarining noaniq bo'lishi. Sud qaysi dalilga ustunlik berishi kerakligini belgilovchi aniq normalar yo'q. Ekspert xulosalarini baholashda sudyalarning maxsus

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-7228758>

⁶ Shoraxmetov Sh.Sh. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent, 1980.

⁷ Mamasiddiqov M.M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi. – Toshkent: "Adolat" MHAM, 2022.

bilimlarning yetishmasligi. Ko'pincha, sud ekspert xulosasini tanqidiy baholamay, avtomatik ravishda qabul qilib oladi. Taraflarning o'zaro tan olgan faktlarini baholashda shubha paydo bo'lganda, ularni umumiy asoslarda isbotlash zarurati. Biroq sud qachon shubha paydo bo'lganligini aniqlashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Bevosita **da'vo** haqida so'z yuritadigan bo'lsak, bu huquqi buzilgan yoki nizolashilayotgan shaxsning sudga murojaat qilib, o'z huquqini himoya qilishni talab etishidir. Da'vo fuqarolik protsessini boshlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Da'vo uchta asosiy elementdan iborat:

1. **Da'vo predmeti** — suddan talab qilinayotgan aniq talab.
2. **Da'vo asoslari** — talabni keltirib chiqargan faktik holatlar.
3. **Da'vo subyektlari** — da'vogar va javobgar.

Fuqarolik protsessida da'volar bir nechta turlarga bo'linadi. Eng ko'p uchraydiganlari talabni tan olish haqidagi da'vo, majburiyatni bajarishga majbur qilish haqidagi da'vo va huquqni tan olish haqidagi da'volardir. Talabni tan olish haqidagi da'vo, odatda, qarzni undirish yoki zararlarni qoplash kabi holatlarda qo'llaniladi. Majburiyatni bajarishga majbur qilish haqidagi da'vo shartnoma shartlari bajarilmaganda yuzaga keladi. Huquqni tan olish haqidagi da'vo esa huquq mavjudligini sud orqali tasdiqlashni ko'zda tutadi.

Da'vo arizasi qonunda belgilangan shakl va mazmunga ega bo'lishi lozim. Unda sud nomi, da'vogar va javobgar to'g'risidagi ma'lumotlar, nizoning mohiyati, da'vo talablari, talablarni asoslovchi dalillar hamda ilova qilinayotgan hujjatlar ro'yxati ko'rsatiladi. Da'vo arizasining to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilishi sud ishini tez va samarali ko'rib chiqishga xizmat qiladi⁸. Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar, shuningdek da'vo instituti sud adolatliligining asosiy belgilaridan hisoblanadi. Isbotlash jarayoni orqali sud ishning haqiqiy holatlarini aniqlaydi, dalillar sud qarorining asosini tashkil etadi. Da'vo esa fuqarolik protsessining boshlanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fuqarolik va iqtisodiy protsessda dalillar va isbotlash, da'vo institutlari adolatli sudlovning asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. O'tkazilgan tahlil quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida dalillar va isbotlash bo'yicha qonunchilik asoslari mavjud va 2024-yilda qabul qilingan raqamli dalillar to'g'risidagi qonun hujjatlari zamonaviy talablarga javob beradi. Biroq, bu normallarni amalda qo'llash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

⁸ Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha protsessual xarakatlar // ResearchGate. – 2024. – 20-may.
URL: <https://www.researchgate.net/publication/381322419>

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sud jarayonlarida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli dalillarning autentligini tekshirish, ularning ishonchligini baholash va to'g'ri saqlash masalalari hal etilishini talab qiladi.

Uchinchidan, dalillarni baholash jarayonida sud mustaqilligi va qonuniy mezonlar o'rtasidagi muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega. Oliy sud Plenumining qarori ta'kidlaganidek, hech bir dalil oldindan belgilangan kuchga ega emas, lekin sud o'z xulosalarini asoslashda aniq mezonlarga tayanishi lozim.

To'rtinchidan, sud tizimida raqamli dalillar bilan ishlash bo'yicha kadrlar tayyorlash va texnik bazani mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda ko'pchilik sudyalarda raqamli texnologiyalar sohasida yetarli bilimga ega emas, bu esa elektron dalillarni baholashda xatolarga olib keladi.

Beshinchidan, o'zbek olimlarining – M.M.Mamasiddiqov, Sh.Sh.Shoraxmetov, Z.Esanova va boshqalarning ilmiy ishlarida dalillar va isbotlash masalalari chuqur o'rganilgan. Ularning nazariy qarashlarini amaliyotga joriy etish va qonunchilikni takomillashtirish zarur.

Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish orqali fuqarolik va iqtisodiy protsessda dalillar va isbotlash tizimini takomillashtirish, sud qarorlarining sifatini oshirish va adolatli sudlovni ta'minlash yanada mustahkamlanadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillar uchun taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan sud-huquq tizimini isloh qilish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Umumiy qism. – Toshkent: TDYU, 2010.
2. Bentham J. Rationale of Judicial Evidence. – London: Hunt & Clarke, 1827.
3. <https://lex.uz/docs/3517337>
4. <https://lex.uz/uz/docs/-5185744>
5. <https://lex.uz/uz/docs/-7228758>
6. Shoraxmetov Sh.Sh. Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. – Toshkent, 1980.
7. Mamasiddiqov M.M., Esanova Z., Habibullayev D. Fuqarolik protsessual huquqi. – Toshkent: "Adolat" MHAM, 2022.
8. Fuqarolik ishlarini sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha protsessual xarakatlar // ResearchGate. – 2024. – 20-may.